

BILIMLARGA ASOSLANGAN MENEJMENTNING ISHLAB CHIQRISHNI BOSHQARISHDAGI AHAMIYATI

Mavluda ASADULLAYEVA
University of science and technologies
“Aniq fanlar” kafedrası o‘qituvchisi
lyudaasadullayeva01@gmail.com
Anvarbekova Manzura
Psixologiya ta’lim yo‘nalishi
1-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Maqolada raqobat sharoitida ishlab chiqarishni tashkil qilish va boshqarishda xodimlarning bilim darajasi qanchalik darajada muhim ahamiyatga ega ekanligi xususida fikr yuritilgan. Bu borada Yaponiya va AQSh kabi rivojlangan mamlakatlardagi kompaniyalarning ilg‘or tajribasi keltirib o‘tilgan. Raqobat muhitiga asoslangan erkin bozor munosabatlari tizimida innovatsiyalar va bilimlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik a’lo darajada yoritib berilgan. Mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun zarur ahamiyatga ega bo‘lgan “bilimlar menejmenti” tushunchasiga yaxshi tavsif berilgan.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается, насколько важен уровень знаний сотрудников в организации и управлении производством в конкурентных условиях. В связи с этим приводится передовой опыт компаний развитых стран, таких как Япония и США. Хорошо проиллюстрирована связь между инновациями и знаниями в конкурентной системе свободного рынка. Хорошо описано понятие «управление знаниями», которое имеет важное значение для экономики нашей страны.

ABSTRACT

The article discusses how important the level of knowledge of employees in the organization and management of production in competitive conditions. In this regard, the best practices of companies from developed countries such as Japan and the USA are given. The relationship between innovation and knowledge in a competitive free market system is well illustrated. Хорошо описано понятие «управление знаниями», которое имеет важное значение для экономики нашей страны.

Kalit so‘zlar: menejment; internet; bilim; innovatsiya.

Ключевые слова: менеджмент; интернет; знание; инновация.

Keywords: management; internet; knowledge; innovation.

XX asrda menejment fani yuzaga kelganidan so‘ng uning negizida turli xil maktablar, yondashuvlar va modellar yaratildi. Ularning turli-tumanligi menejmentni rivojlantirishga bo‘lgan talablarning o‘zgarishi va menejment borasida yetakchi bo‘lgan mamlakatlarning spetsifik jihatlari bilan tavsiflanadi.

Menejment nazariyasi va amaliyotining eng avvalo AQSh da shakllanganligi hozirgi kunga qadar Shimoliy Amerika menejment modelining ommaviy ravishda rivojlanib borayotganligiga sabab bo'lmoqda. Bilimlarga asoslangan menejment ham aynan shu modelning mahsuli bo'lib, unda asosiy e'tibor kompaniyada erkin va ijodkorlikni rag'batlantiruvchi muhitni yaratish orqali bilim va tajribasi yuqori bo'lgan mutaxassislar mehnatidan maksimal darajada samarali foydalanishga qaratiladi.

Ko'plab ekspertlarning fikricha, Shimoliy Amerika menejmenti modeli asosan foydani maksimallashtirishga qaratilgan bo'lib, sifat mezoniga bo'lgan e'tibor ham ana shu ustuvorlikdan kelib chiqqan holda shakllanadi. Shu o'rinda, ushbu menejment modeliga asosiy raqobatchi hisoblangan Yapon menejment modeliga qaratadigan bo'lsak, buning aksini ko'ramiz. Yapon kompaniyalari uchun sifat muhimroq bo'lib, ular har qanday vaziyatda ham sifat mezonini ustun deb bilishadi.

Biroq, keyingi yillarda xalqaro raqobat kurashining avj olib borayotganligi Amerika kompaniyalari oldida ham imkon qadar mahsulot sifatini yo'qotmagan holda foydaga erishish tendentsiyasini kuchaytirib yubordi. Bu esa ushbu kompaniyalar tomonidan menejmentni, jumladan ichki menejment tizimini tashkil etishda raqobatdagi ustunlikka ega bo'lish orqali maqsadga erishishga bo'lgan intilishni rag'batlantira boshladi.

Bilimlarga asoslangan menejment tizimi ana shunday intilish natijasida yuzaga kelgan bo'lib, u kompaniyalar uchun ishlab chiqarishda yuqori darajadagi professionallarning mehnatidan va ilg'or axborot-kommunikatsion texnologiyalardan samarali foydalanish orqali sifatli mahsulot yoki xizmatlar yaratish imkonini beradi. Nafaqat AQSh, balki dunyo miqyosida o'z internet xizmatlari bilan mashhur brend hisoblangan Google kompaniyasi bilimlarga asoslangan menejment tizimini o'z faoliyatida eng muvaffaqiyatli tadbiriq etayotgan IT kompaniya bo'lib, bu uning erishayotgan ko'rsatkichlari va yaratayotgan yangidan-yangi innovatsion, qulay xizmatlaridan ham ko'rinib turibdi.

Google kompaniyasi o'zida asosan sohaning yetuk mutaxassislarini yig'ishga asosiy e'tiborni qaratib, ular uchun ijodkorlikni qo'llab-quvvatlaydigan muhitni yaratish sari harakat qiladi. Tabiiyki, har qanday menejment tizimining muvaffaqiyatli tadbiriq etilishi birinchi navbatda uning uchun zarur shart-sharoitlarning yaratilishini talab qiladi. Kompaniyada bu borada barcha qulayliklar yaratilgan bo'lib, ularni quyidagicha tavsiflash mumkin:

(1) kompaniya ofislarining ichki dizaynini muntazam ravishda yangilab borish orqali xodimlar uchun bir xil va zerikarli bo'lgan muhitning yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslik. Masalan, Google ning Tokioda joylashgan ofisining dizayni o'ziga xos bo'lib, u tashrif buyuruvchilarga oshxonani eslatadi;

(2) kompaniya ofislarida nafaqat Google ning o'zi, balki boshqa mashhur IT kompaniyalari tomonidan yaratilgan axborot texnologiyalarining eng oxirgi yutuqlarini tadbiriq etib borish;

(3) kompaniya xodimlariga ish vaqtida ma'naviy hordiq chiqarishlari uchun zarur bo'lgan barcha qulayliklarni yaratish. Masalan, Google ofislarida karaoke, stol tennisi, trenajer zallari, musiqa studiyasi, Google Drive ekrani kabilarni

kuzatish mumkin.

Bu kabi shart-sharoitlarning barchasi Google tomonidan joriy etilgan bilimlarga asoslangan menejment tizimini samarali amal qilishiga qaratilgan. Shu o'rinda qiziq bir tahliliy ma'lumotni keltirib o'tmoqchimiz. Yapon kompaniyalarining aksariyati tomonidan bunday menejment tizimining qo'llab-quvvatlanmasligiga asosiy sabab sifatida yapon ishchilarining har qanday mahsulot yoki xizmatni ofisda yaratish kerak degani mentalitetini ko'rsatishadi.

O'zbekiston korxonalarida ham zamonaviy menejment modellaridan foydalanishga bo'lgan ehtiyoj oshib borayotgan bo'lib, bu bevosita raqobatga asoslangan biznes muhitining shakllanib borayotganligi bilan tavsiflanadi. Bilimlarga asoslangan menejment tizimini mahalliy korxonalarda rivojlantirish uchun birinchi navbatda, o'z sohasini yaxshi bilgan va unga ishtiyoqi baland bo'lgan mutaxassislardan iborat jamoa shakllanishi kerak bo'lib, bunday jamoaning har bir a'zosi o'ziga biriktirilgan vazifaga yuqori mas'uliyat bilan yondashishi kerak. Ikkinchidan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, jumladan Internet va Intranet tizimlaridan samarali foydalanish yo'lga qo'yilishi kerak. Uchinchidan, korxonalar rahbariyati tomonidan bilimlarga asoslangan menejment tizimini kontseptual asoslari shakllantirilishi va amalga oshirilishini nazorat qilish tizimi rivojlantirilishi kerak.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mahalliy korxonalarda bilimlarga asoslangan menejment tizimining spetsifik imkoniyatlardan kelib chiqqan holda oqilona tashkil etilishi ishlab chiqarishning yuqori texnologiyalar asosida tashkil etilishi va boshqarilishi sur'atlarini tezlashtirish imkoniyatini beradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Stella Cottrell. The Study Skills Handbook. Second Edition. Palgrave: Macmillan, 2003
2. Ian Whiteling. Start your own business 2010: The ultimate step-by-step guide. Crimson Publishing, 2010
3. Muradov, Salaxiddin Djumanazarovich. "Talabalarning texnik ijodkorlik kompetentligini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida" Educational Research in Universal Sciences 2.14 (2023): 53-56.
4. Хасанов А.А. Современная теория обучения на межпредметной основе // Science and world. – Volgograd, 2016. -№8 (36), vol II. – С. 76-78
5. Хасанов А.А. Дидактический анализ проблемы межпредметных связей и возможности их использования в средне-специальных учебных заведениях // МОЛОДОЙ УЧЁНЫЙ // ежемесячный научный журнал № 1 (36)/2012 Том II 129-130с. ISSN 2072-0297 Чита-2012 г.
6. Хасанов А.А. Ўқитиш жараёнида фанлараро алоқадрикликни амалга оширишнинг психологик-педагогик асослари // Замонавий таълим // илмий- амалий оммабоп журнал. Тошкент-2017, №10, 9-14 бетлар
Хасанов А.А. Маматкаримов К.З. Межпредметные связи как дидактические условия повышения эффективности учебного процесса // МОЛОДОЙ УЧЁНЫЙ // ежемесячный научный журнал № 20 (124)/ октябрь-2, 2016 г.